

O'qituvchining pedagogik texnikasi va axloqi

Manzuraxon Xabibulla qizi Abdullayeva
Ijzatxon G'ofurovna Mamadjonova
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, 17-maktab

Annotatsiya: ushbu maqolada o'qituvchi va pedagoglarning ish faoliyati davomida eng kerakli xislati va qobiliyatlaridan biri pedagogik texnika va axloqiy bilimlari haqida so'z yuritilgan. Pedagog qanday bo'lishi, tanish vaziyatlardan qanday chiqib ketishi va qay darajada axloqiy tarbiya berish bilimiga ega bo'lishi, uni qo'llashi haqida bilib olasiz.

Kalit so'zlar: pedagogik texnikasi, pedagogik axloq, mehnat professiogrammasi, axloqiy odat, axloqiy ong, axloqiy xulq, axloqiy tarbiya.

Teacher teaching techniques and ethics

Manzuraxon Khabibulla qizi Abdullayeva
Ijzatxon G'ofurovna Mamadjonova
Fergana region, Uzbekistan district, School №17

Abstract: This article discusses pedagogical knowledge and ethical knowledge, one of the most important qualities and abilities of teachers and educators in their work. You will learn how to be an educator, how to get out of familiar situations, and how well you have the knowledge to apply moral education.

Keywords: pedagogical technique, pedagogical ethics, work professiogram, moral habit, moral consciousness, moral behavior, moral education.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya berish kun talabi hisoblanadi. Bugungi kunda malakali kadrlar tayyorlash va ularni yosh avlod uchun yetarli bilimlarini egallashlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar esa har qanday o'qituvchini o'z ustida ishlashga yetarlicha zamin yaratib bermoqda. Kasbimiz bo'yicha egallashimiz kerak bo'lgan bir jihatga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Bu biz tez-tez ishlatayotgan atama "Pedagogik texnika" haqida so'z yuritmoqchiman.

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogil bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu awalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasmi va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon

qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchi o'zida bu hislatlarni mujassam etarkan, u eng yaxshi, o'z imij-uslubiga ega shaxs misolida gavdalanadi. Bu esa o'zining ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligini va atrofda hamkasblarining ham faolligini oshiribgina qolmay, o'quvchilarda ham kuchli motivatsiya shakllantirib faolliklarini oshiradi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab. Zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbui. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

O'qituvchi kundalik faoliyat uchun mukammallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilikka ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali o'quvchilarda egallanilayotgan bilimlar natijasida samaradorligini oshirish va mukammallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha pedagogika sohasida doimo tadqiqotlar olib borishi va o'qituvchi kundalik faoliyati davomida yuqorida ko'rsatilgan izchillikni amaliyotda qo'llashni imkon qadar o'z faoliyatining bir bo'lagi sifatida ko'rmog'i kerak.

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi.

Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik. aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Bunday jarayonlarda pedagog sifatida eng yaxshi va maqbul yo'l tutmoqlik kerak bo'ladi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi. Bu esa o'z navbatida pedagogik mahoratda ham shakllanadi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq. O'qituvchilarda individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari, ayniqsa, psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, o'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar.

1) O'qituvchining shaxsiy hislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2) Kasbiga xos bilimlari: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'qituvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3) Kasbiga xos hislatlari: milliy maqfura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga olib bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'qituvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'qituvchilar jamoasini boshqara olishi.

5) Tashkilotchilik malakalari: o'qituvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'qituvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

6) Kommunikativ malakalari: o'qituvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'qituvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'qituvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozatni tartibga solishi.

7) Diagnostik malakalari: o'qituvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'qituvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

8) Ijodiy hislatlari: o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'qituvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'qituvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'qituvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.

Shu bilan birga o'qituvchining axloqiy me'yorlarga javob beradigan darajada o'z tushunchasi, bilimi va odatlari bo'lish lozim. Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida hisoblanadi. Bu qoidalar esa axloqiy me'yorlarni insonga qay darajada singdirlishini doimo eslatib turadi.

Axloqiy odat - axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti-harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo'ladi. Bu odatlar esa munosabatlarda va doimiy vaziyatlarda aks etadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g'oyasining o'qituvchilar va o'quvchilar ongida aks etishi. Ko'rinadiki vatanparvalik va jonkuyarlikning aks etishi oz' navbatida axloqiy ong bilan bevosita chambarchas bog'liqdir.

Axloqiy xulq motivlari va nazorat joyiga ko'ra, axloqiy rivojlanish darajasi amerika olimi Ya.Kolbergning ta'kidlashicha, uchta guruhga bo'linadi.

1. Axloqgacha (bola axloq talablarini jazodan, ya'ni tashqi nazoratdan qo'rqib bajaradi).

2. Konvensional (axloq talablariga yaxshi yashash uchun amal qiladi).

3. Avtonom (hayot qoidasiga aylanib bo'lgan, o'z ixtiyori bo'yicha amal qiladi).

Yana bir xislat haqida tanishib o'tsak. Bu axloqiy tarbiyadir. Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchilarda axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy xulqni shakllantirish bilan bog'liq pedagogik faoliyatdir. Bu faoliyatni tashkil etish uchun avvalo o'qituvchida yetarli bilimlar bo'lmog'i darkor.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilar bilan ishlash jarayonida ularga quyidagi bilimlarni yetkazishi kerak bo'ladi. Aslida axloqiy tarbiyaning ijtimoiy aspekti bu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari va prinsiplardan iborat. Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchining pedagogik texnikasi va axloqiy hislatlari yetarli darajada bo'lishi kerak. Har doim tanish faoliyat davomida ushbu xislat va bilimlarga tayanib ish ko'rish, vaziyatdan to'laqonli ijobiy natija bilan chiqishga erishish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

2. Mansurova Nasiba Ilxomjonovna. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy pedagogik asoslari. Magistrlik dissertatsiyasi. Samarqand – 2011.

3. Ziyayev Adhamjon Nisolmuxammadovich Umumiy pedagogika.(tarbiya nazariyasi) O`quv qo`llanma. 5140000 – O`qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo`nalishlari uchun. Qo`qon 2020.